

O'QUV JARAYONIDA INTERFAOL METODLAR SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING ASOSI SIFATIDA

Qo'chqarova Ozoda Baxodir qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Magistratura bo'limi

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası

Pedagogika yo'nalishi 1-kurs Magistranti.

umidjonquchqarov1@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18730088>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bugungi kunda o'quv jarayonida interfaol metodlar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosi ekanligi yoritilgan. Tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarida interfaol metodlarni o'rni tahlil qilindi.

Shuningdek, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda pedagoglarning raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish zaruriyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, interaktiv metodlar, mustaqil fikrlash, klaster, bahs – munozara, ta'lim sifatini oshirish, raqamli ta'lim muhiti.

INTERACTIVE METHODS AS THE FOUNDATION OF A STUDENT-CENTERED APPROACH IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract. This article highlights that interactive methods in today's teaching process are the foundation of a person-centered approach. The study analyzed the role of interactive methods in the full development of all participants in a person-centered educational process.

Additionally, the study highlights the mechanisms for supporting students' individual abilities and the need to develop educators' digital skills.

Keywords: Person-centered education, interactive methods, independent thinking, cluster, debate, enhancing educational quality, digital learning environment.

KIRISH

Bugungi zamonaviy dunyoda ta'lim tizimi insonning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga, uning ijodiy salohiyati va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilmoqda. Shunga mos ravishda pedagogik faoliyatda ham an'anaviy o'qitishdan interfaol, ya'ni faol ishtirok va muloqotga asoslangan o'qitish metodlariga o'tish zaruriyati tug'ilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun (2020-yangi tahrirdagi), “O'zbekiston – 2030” strategiyasi va “Raqamli ta'lim” konsepsiyasi pedagogik jarayonni yangicha mazmunda o'zgartirishlar kiritilishini talab qiladi ¹.

Bu esa interfaol metodlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda, chunki ular o'quvchi faoliyatini faollashtirib, ta'limni o'zlashtirish sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Interfaol metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlab, ularning intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida interfaol metod va vositalardan samarali foydalanish, nafaqat bilim berish, balki shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, o'quvchilarning kommunikativ hamda ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi prezidentining “O'zbekiston – 2030” strategiyasi.

ASOSIY QISM

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi ta'limning kelajagi. Ilm-fan va ta'lim - aynan shular mamlakatning raqobatbardoshligi, uning innovatsion rivojlanishini ta'minlovchi inson kapitalini yaratishi lozim. Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim talabani ta'lim tizimiga moslashtirishni emas, aksincha, uning individual xususiyatlarini inobatga olgan holda har tomonlama rivojlanishi, shaxs sifatida kamolotga yetishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni nazarda tutadi. Bu turdagi ta'lim talabalarni o'z-o'zini rivojlantirishga, mustaqil bilim olishga, o'zining ichki imkoniyatlari, qobiliyatlarini to'la namoyon eta olishi, bilish faolligini oshirish uchun zarur sharoitni vujudga keltirishi zarur. Talabalar shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonida o'quv materialini o'zlashtirishga ijodiy, tanqidiy yondashishni, yangi g'oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o'z fikrini isbotlay olish, muammoli vaziyatlarda samarali yechimni topish ko'nikma, malakalarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu vaziyatda pedagog tomonidan ta'lim jarayonida innovatsion xarakterga ega ya'ni interfaol metodlarning qo'llanilishi talabalarni rivojlantirish, qobiliyatlarini yanada o'stirishga xizmat qiladi.

Interfaol metod - bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan o'qitish shakli bo'lib, unda har bir ishtirokchi o'z fikrini erkin ifoda etadi, muhokama jarayonida faol qatnashadi va bilimlarni mustaqil tarzda o'zlashtiradi. "Interfaol" so'zi inglizcha "interactive" atamasidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sir" degan ma'noni anglatadi². An'anaviy darslarda o'qituvchi bilim manbai sifatida yetakchi rolni bajaradi. Interfaol ta'limda esa o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, fasilitator sifatida ishtirok etadi. O'quvchi esa bilimni tayyor holatda emas, balki izlanish, muloqot va hamkorlik orqali o'zlashtiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar bu - interfaol usullar ular quyidagilardan iborat:

1. **"Aqliy hujum"** ya'ni muammoli izlanish – muammoni hal etish uchun o'quvchilar tomonidan erkin fikrlar ilgari suriladi.
2. **"Bahs-munozara"** – turli nuqtayi nazarlarni taqqoslab, eng maqbul xulosani topish.
3. **"Klaster"** – ma'lum tushuncha yoki muammoni mantiqiy tarzda tarmoqlash, fikrlarni tizimlashtirish.
4. **"Keys-stadi"** (vaziyatli tahlil) – hayotiy vaziyatlar asosida tahlil va qaror qabul qilish.
5. **"Sinkveyn"** – qisqa shakldagi she'riy tuzilma orqali mavzuni ifodalash, ijodkorlikni rivojlantirish.
6. **"Rol o'ynash"** – ijtimoiy vaziyatlarni modellashtirib, muammoli holatlarda to'g'ri qaror topish.
7. **"Debat"** – ikki yoki undan ortiq guruhning dalil va isbotlarga asoslangan bahsi³.

Bu metodlar o'quvchini fikrlashga, tahlil qilishga va o'z fikrini erkin bayon etish bilan birga uni asoslashga o'rgatadi. Ayniqsa, ularning o'quvchilar mustaqil fikrlash va mustaqil izlanishni shakllantirishdagi o'rni beqiyosdir.

² Innovative academy "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy konferensiya

³ Xolmatova D. "Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar." — Toshkent: Fan, 2022.

Yuqoridagi mashg'ulotlarni tashkil etishda pedagoglar o'quv axborotlarining talabalar bilim, ko'nikma, malaka va tajribalariga tayangan holda ularni qiziqтира oladigan, fikrlashga, ijodiy yondashishga undaydigan imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. An'anaviy o'qitish texnologiyasida pedagogikaning ta'lim oluvchiga munosabati avtoritar xarakterga ega, ya'ni ta'lim jarayonida u yagona subyekt sifatida namoyon bo'ladi, ta'lim oluvchilar esa faqatgina obyekt vazifasini bajaradi, xolos. Zamonaviy ta'lim jarayonida esa uni aksi, ya'ni subyekt – subyekt o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda ishlashi nazarda tutiladi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi talabaning o'ziga xos o'quv usullari va shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beruvchi, o'quv jarayonini optimallashtirish va individualizatsiyaga asoslangan. Shu sababli, o'quv jarayonida interfaol metodlar shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosi desak mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimining barcha sohalarida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni to'g'ri tashkil etish orqali ta'lim jarayonida sezilarli natijalarga erishish mumkin. Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shu bilan birga, pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni beqiyosdir. Ular ta'limni faollashtiradi, o'quvchini markazga qo'yadi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi. Natijada ta'lim nafaqat bilim berish, balki fikrlash, tahlil qilish, ijodkorlik va kommunikatsiya ko'nikmalarini shakllantirish jarayoniga aylanadi.

Interfaol metodlar - bu shunchaki o'qitish usuli emas, balki ta'lim falsafasidir.

Eng muhimi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni o'quv jarayoniga izchil va tizimli tatbiq etish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o'quvchi shaxsining har tomonlama rivojlanishiga keng imkoniyat yaratadi hamda ta'limni insonparvarlik, innovatsionlik va barqarorlik tamoyillari asosida sifatli tashkil etishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi.
2. Innovative academy "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" nomli ilmiy konferensiya
3. Xolmatova D. "Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar." - Toshkent: Fan, 2022.
4. Ro'ziyeva Sadoqat Xasanovna. Образование и инновационные исследования (2024 год № 2)